



XALQ DEPUTATLARI TERMIZ TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 1-avgust

VI-71-110-8-117-K/24

Termiz tumani

Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashidagi deputatlik o‘rinlari sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 88-moddasi,
“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga asosan xalq
deputatlari Termiz tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I

1. Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi B.Xonovning xalq deputatlari Termiz tumani Kengashida deputatlik o‘rinlari sonini belgilashning yangi mezonlari haqidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashidagi deputatlik o‘rinlari soni tuman aholisi sonidan kelib chiqqan holda, navbatdagi chaqiriqdan boshlab – 20 ta etib belgilansin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Termiz tumani Kengash kotibiyati mudiri A.Avliyakov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

NAZAROV SHUXRAT
XUDAYBERDIYEVICH